

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING
KASBIY KOMPETENTLIGINI BELGILASHNING BOSQICHLARI.**

Xushvaqto'v Yusuf Qurbonmurod o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Yusufxushvaqto'v16@gmail.com

+998997187006

Annotatsiya: Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda " pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratish lozim.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, ko'nikma, g'oya, pedagog, standart, element, muvaffaqiyat, metod, qobiliyat.

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namayon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qurquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil o'rganish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, yani, muommoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmush jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir. O'qituvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirish lozim.

Pedagoglar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish) da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni bo'lajak o'qituvchilar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim. Shuningdek, " kreativ xarakterga ega muhitdagina bo'lajak o'qituvchilar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ham pedagoglar bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va shakllantirishda ularning jamoa bo'lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Pedagog kreativlik darslarida jamoa tuyg'usining ahamiyatini anglagan holda, doimiy ravishda guruhlarini o'zgartirib, bo'lajak o'qituvchilarda jamoa bo'lib ishlash, boshqalar qobilyati va mahoratini hurmat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, yakka tartibda ishlash ma'lum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darslarda kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir. Negaki, kreativlik ko'nikmasi ijtimoiy fenomendir; A.J. Rouning fikriga ko'ra, kreativ qarashlar jamoa bo'lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi.

Muayyan omilar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda pedagoglar bu kabi omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1. Tavakkal qilishdan qochish;
2. Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash;
3. Boshqalarga tobe bo'lish;
4. Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;
5. Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda " pedagogning alohida roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yarata olishi lozim.

Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma'naviyatga, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo'lida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik namunalarini ko'rsatishi lozim. Shuningdek, o'qituvchida ham san'at ham mahorat bo'lishi kerakki, u o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi, darsni qiziqarli qilib o'tishi va o'quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak. Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarda uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarni samarali ravishda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.-Toshkent 2015-120 bet
3. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya.- T.: Fan, 2004.B-73-80.
4. Azizxojaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2000.-54 b.

